



## YAPON VA O'ZBEK TILIDA SHAMOLNI ANGLATUVCHI SO'ZLARNING METAFORAVIY QO'LLANILISHI

**Sobitova Nargiza**

*Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti. Yapon tili kafedrası magistranti*  
e-mail: [nargizasabitova0@gmail.com](mailto:nargizasabitova0@gmail.com)

**Annotatsiya:** *Dunyoni tabiat va uning go'zaliklarisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Tabiat bizni o'rab turgan olamni anglash va tafakkur qilishda muhim o'rin egallyadi. Jahon va o'zbek tilshunosligida metafora mavzusi va uning tabiat hodisalari bilan bog'lab o'rganish, dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu maqolamiz yapon va o'zbek tilida shamolni anglatuvchi so'zlarning metaforaviy qo'llanilishi va ularning semantik tahliliga bag'ishlanadi. Avvalo, shuni ta'kidlab o'tish joizki, shamol Allohning yaratgan maxluqi va uning amri bilan rahmat ham, la'nat ham bo'lib kelishi mumkin. Shamol majoziy xususiyatga ega bo'lgani uchun, uni turlicha izohlash mumkin.*

**Kalit so'zlar:** *shaboda obrazi, shamol, tabiat tasviri, poetik san'at, o'xshatish.*

**Аннотация:** *Мир немьслим без природы и ее красот. Природа занимает важное место в понимании и созерцании окружающего нас мира. В мировом и узбекском языкознании тема метафоры и ее связи с явлениями природы приобретает актуальное значение. Эта статья будет посвящена метафорическому использованию слов, обозначающих ветер, в Японском и узбекском языках и их семантическому анализу. Прежде всего, стоит отметить, что ветер-это творение Бога, и по его повелению он может прийти как в благодарность, так проклятие. Поскольку ветер носит образный характер, его можно трактовать по-разному.*

**Ключевые слова:** *образ ветра, образ природы, поэтическое искусство, сравнение.*

**Abstract:** *The world cannot be imagined without nature and its beauty. Nature occupies an important place in understanding and contemplating the world that surrounds us. In world and Uzbek linguistics, the study of the subject of metaphors and its connection with natural phenomena is becoming relevant. This article will be devoted to the metaphorical application of words that mean wind in Japanese and Uzbek and their semantic analysis. First of all, it should be noted that the wind can be both a mercy and a curse on the creature created by God and by his command. Since the wind is figurative, it can be interpreted in different ways.*

**Keywords:** *the image of the wind, the image of nature, poetic art, comparison.*

**Kirish.**

**Yapon tilida shamolni anglatuvchi so'zlarning semantik tahlili.**

Bugun tilshunoslikda metafora haqida yetarlicha bilim va ko'mikmalar mavjud bo'lishiga qaramay, unga bo'lgan qiziqish tobora ortib bormoqda. Bu esa, tili va psixik



hodisalarning o'zaro ta'siridagi tadqiqotlarning dolzarblashuvi tufayli metaforologiyaning sifat jihatdan yangi bosqichga o'tishi bilan bog'liqdir. So'ngi paytlarda metafora hodisasiga faylasuflar, mantiqchilar, sotsiologlar, psixologlar, tilshunoslar, adabiyotshunoslar va gumanitar fan vakillari ham muntazam ravishda murojaat qilmoqdalar. Bu esa metaforaning yanada keng nuqtai nazaridan o'rganishga sabab bo'lmoqda. Ushbu bobimizda asosan, yapon va o'zbek tilidagi shamolni anglatuvchi so'zlarning metaforaviy qo'llanilishining semantik tahlili olib borildi.

...しかし、こんなたとえで一体何人の人が、その音について理解してくれるというのだろう。いとこがうちに電話してきたのは、寒い風。

あの、突然、お電話なんかしてごめんなさい」 私は最初彼が誰なのか分らなかった。...

(小川洋子, 1994 『妊娠カレンダー』)

O'qilishi: Shikashi, kon'na tatoes de ittai nani-jin no hito ga, sono otonitsuite rikai shite kureru to iu nodarou. Itoko ga uchi ni denwa shite kita no wa, samui kaze. Ano, totsuzen, o denwa nanka shite gomen'nasai' watashi wa saisho kare ga darena no ka wakaranakatta.

(Muallif tarjimasi) Bunday ohang orqali aytilgan so'zlarni ko'plar, tushuna olar edi, ammo men yaxshi tushuna olmadim. Mening amakivachcham sovuq shamol bilan menga qo'ng'iroq qildi. Avvaliga, men uni hattoki, kim ekanligini ham anglay olmadim, axir men u bilan uzoq yillardan buyon aloqa qilmas edim-da.

Ushbu misolda keltirilgan "sovuq shamol" shamol leksemasi ot orqali ifodalanib sifatga bog'lanib kelgan. Bu gapning asl ma'nosi "sovuq shamol" emas aksincha "yomon xabar" degan ma'noni ifodalab kelgan va nima uchun "yomon xabar" deb emas "sovuq sahmol" bilan ifodalanganligini avvalo izohlab o'tamiz. Yaponiya ma'daniyatida "shamol" so'zining tub mohiyati ularning hudolari va diniy marosimlari bilan bog'liq holdir, ammo, "sovuq so'zi" qo'shilishi bilan ularning ma'daniyatida, "ajralish", "sevgan yorining vafoti", "ota-onasining o'limi", "noxush vaziyatlar" haqida xabar berganda shamol leksemasiga sovuq sifatni qo'shgan holda ifodalanadi. "Sovuq shamol" metafora orqali ma'nosi bo'rttirilib, uzoq yillardan buyon aloqda bo'lmagan, amakivachchasi "yomon xabarni" yetqazish uchun qo'ng'iroq qiliganiga ishora qilib kelmoqda.

Ya'ni, yapon tilida 寒い風 (samui kaze) sovuq shamol (shamolning sovuqligi emas) orqali metaforani hosil qilgan.

...多くの現代人は専門化のなかには権威主義の匂いをぎとり、商業主義には自分を操る黒い風を感じとって、筒者の結合に身震いを覚えているのかむしろません。...

〈山崎正和 (著) 1鍵4 (近代の擁副)〉

O'qilishi: Oku no gendaijin ha senmon-ka no nakaniha ken'i shugi no nioi o gitori, shogyo shugi ni ha jibun o ayatsuru kuroi kaze o kanjitotte, -to-sha no ketsugo ni miburui o oboete iru no kamo shiremasen.





(Muallif tarjimasi) Hozirgi kunda ko'pgina zamonaviy odamlar biznesda avtoritarizm haqida o'ylab havotirga tushishdi. Chunki biznesda qora shamol, birlashuvidan cho'chishadi.

Ushbu misolda 黒い風 iborasi o'zining asl ma'nosida bo'lmay, ma'nosi ko'chib, salbiy tasvirni hosil qilgan.

Qora shamol ya'ni odamlarni bosim bilan boshqaruvchi kuchlar birlashmasi, noqonuniy yo'l bilan biznesda hukumronlik qilishi.

黒い風 yapon tilida metafora sifatida salbiy ma'no anglatib kelmoqda.

そのままぐいと引き寄せる。間近に彼がせまると、風が麦畑を渡り、うなるような声をあげた。「やめて」突き放そうとするが、彼は力をゆるめることなく、アウローラを覗き込んで目を細める。

O'qilishi: Sonomama guito hikiyoseru. Madjika ni kare ga semaru to,-fū ga mugibatake o watari, unaru yōna koe o ageta. 'Yamete' tsukihanasou to suruga, kare wa chikara o yurumeru koto naku, aurōra o nozoki konde me o hosomeru.

( Muallif tarjimasi) Uni oziroq qoyib yubormay turing. U yaqinlasha boshlagach shamol bug'doyzorlar orasidan kesib o'tib, mayin ovozda tovush chiqardi. To'xta! Meni uni ogohlantirshimga qaramay u yurishda davom etardi va Avroraga qarab jilmayib qo'ydi.

Ushbu misolda shamol bug'doyzorlar orasidan kesib o'tib ovoz chiqardi, bu yerda shamolning emas sevgan yorining oshig'iga bo'lgan jon talvasasida kelmaslikka undayotgan hissiyotlari akas ettirilgan. Yaponiya an'analrida va qadimiy afsonalarida "shamol" obrazi sevishganlar o'rtasida xabarchi, sog'inch timsoli vazifalarini ifodalab kelgan. Yaponiya xalqining shamol hudosi 風神 (fujin) ham afsonalarda sevishganlar o'rtasida aloqa va ko'prik ma'nosida qo'llanilgani haqida tankalar yaratilgan.

...意識が意識と出会い、溶け合い、やがて消えていく。一陣の美しい風が来た、さらに高く次郎は浮かび上がり、目には多くの物を映す。あれは、懐かしい水車に、かくれんぼで遊んだ社に、首の欠けた地蔵様。

O'qilishi: Ishiki ga ishiki to deai, tokeai, yagate kieteiku. Ichi-jin no utsukushī kaze ga kita, sarani kō ku Jirō wa ukabiagari,-me ni wa ōku no mono o utsusu. Are wa, natsukashī suisha ni, kakurenbo de asonda sha ni, kubi no kaketa jizō-sama.

(Muallif tarjimasi) Ong ong bilan uchrashadi, birlashadi va oxir-oqibat g'oyib bo'ladi. Go'zal shamol esadi va Jiro ko'z o'ngida eski xotiralarni yodga olgan holda yanada balandroq uchdi. Bu xotiralar suv g'ildiragi va ular berkinmachoq o'ynagan ziyoratgohlar Jizoning ko'z oldidan asta-sekin o'ya boshladi.

美しい風 – Go'zal shamol

Ushbu misolda go'zal shamol birikmasi yurakning bir burchagidagi, yurak tubidagi yashiringan dard, doim shu tuyg'uni tuygan insonning og'ir kechinmalarini nazarda tutilib, u go'zal shamol esganda qahramonning ko'nglida kutilmaganda, kenglik ochilib yengillikni his qilishini ifoda etadi.



吹きすさぶ刃物のような白い風の中に、女は、まだ諦めきれずに立っているのだ。

Ushbu misolda oq va shamol leksemasi, o'zining ma'nosini anglatmay, qahramonning holatini ifodalab kelmoqda. Ya'ni izg'irin shamolda ayol holati qadayligi, nima bo'lishidan qat'iy nazar taslim bo'lmaslik holaatini ifodalab kelmoqda.

...恐怖に怯え、今にも刀の錆にされんばかりに、自分を襲う鋭利な刃を見上げている。奈緒もこんな風—。こんな風に殺されたのかと思うと、喉元から増悪のようなどす鋭い風の気持が湧き上がった。

O'qilishi: Kyofu ni obie, imanimo katana no sabi sa ren bakari ni, jibun o osou eirina ha o migagete iru. Nao mo konna fu. Konnafuni korosa reta no ka to omou to, nodomoto kara zoo no yona dosuguroi kimochi ga waki agatta.—

“Muallif tarjiması”... Qo'rqib ketdim. Menga hujum qilgan zanglagan qilich o'tkir tig'iga qarab turardim. Nao shunday ko'rinardi. Shunaqa o'ldirib qo'yishdimi, deb o'ylasam, bo'g'zimda nafratdek o'tkir shamolning tuyg'usi paydo bo'ldi.—

Bunda yozuvchi 鋭い風 “o'tkir shamol” orqali metafora hosil qilib, dushmaniga bo'lgan nafrat va g'azabga ishora qilib kelmoqda. Nafrati shunday kuchli bo'lganligidan qalbining tubida sahmol kabi alog'-dalg'ov hissiyotlar yuzaga kelgan.

雪催いの風は鋭く頬を削った。その針はどんな防寒具でも通すのだから、水府の仕事着などは、蚊帳のようであった。

(葉山芳樹 (著) ,2004 yozilishi kerak)

O'qilishi: Yukimoyoi no kaze wa surudoku hoho o kezutta. Sono hari wa don'na bōkan gu demo tōsu nodakara, Suifu no shigoto-gi nado wa, kaya no yōdeatta.

(Muallif tarjiması) Qorli shamol yonoqlarimni keskin qirib tashladi. Ignalar har qanday qishki kiyimni teshishi mumkinligi kabi, Suifuning ish kiyimlari ham chivinli to'rga o'xshar edi.

Ushbu misoldagi shamol yanoqlarimni qirib tashladi, asl ma'nosida emas, hissiy ma'noda qo'llangan. Ushbu gapda shamolning qirib tashlashi insonning sovuqdan “yuzlari muzlab ketgani”, “sovuqning o'ta kuchliligi” va “sovuq yuzga yaqinlashganda undagi shamol yuzni huddi qirib tashalaganday” sezilgan, ya'ni kunning sovuqligidan hattoki, yuzlari ham qotib qolgan degan, salbiy ma'noni ifodalab kelmoqda.

### **O'zbek tilida shamolni ifodalovchi so'zlarning semantik tahlili.**

Quyida o'zbek tilida shamolni anglatuvchi so'zlarning metaforaviy qo'llanilishi semantik tahlil qilinadi.

- Man shu muhabbat bo'lsa kerak, - dedi Muattar. - Muhabbat chaqmoqday ko'ngildagi har qanday sovuq shamolni ham tilka-pora qiladi deyishadi.

Bu yerda “sovuq shamol” inson hayotidagi og'ir kunlar, g'am istiroblar, qayg'u va qiyinchiliklardir, “qora shamol” qadimdan o'zbek xalqida urushning boshlanishi yoki urushdagi voqea-hodisalarni ifodalashda ham qo'llanilgan. Muhabbat chaqmoqdek ko'ngildagi sovuq shamolni ham tilka pora qilishi, agar qalbingizda muhabbat bo'lsa hech qachon ga'm chekmaslik va muhabbat har qanday qora





shamolni tilka pora qilishi ifodalanmoqda. Har qanday g'am bo'lsa ham agar insonning ko'nglida muhabbat bo'lsa, o'sha insonning muhabbatini his qilib yashasa, qayg'u begona degan ma'no bordir. Muhabbatning yana bir ma'nosi muhibning o'z mafaatidan voz kechishidir. Ya'ni muhabbat haqiqiy bo'lsa, muhib suyganidan o'z murodini emas, balki o'zidan suyganining murodini izlaydi.

- G'oyat go'zal fikr, g'oyat go'zal niyat. – Ta'kidladi Xo'ja Afzal. – Lekin bu mamlakatda mansabdorlar toifasining xalqqa jabr-zulm qilmog'i bir odat va an'ana holiga kirib qolgan... Mana bu shamolning balosidir!

Ushbu misolda "shamolning balosidir", ya'ni o'sha davrlarning oliy tabaqa vakillari va zondagonlarning xalq ustidan qilayotgan zo'ravonliklari, adolatsizliklari, ochlik, nochorlik va chorasizliklarini ifodalab kelmoqda. Aslida shamolning dardi balosi bo'lmaydi, bu yerda u metaforik birlik yasab amaldorlarning xalq boshiga olib kelga qiyinchilik va azob ma'nolarini ifodalab kelgan.

- Shamol kuchayib olovning tili yana ham uzunlashdi. U yashin tezligida qamishlarni yamlay borardi. Ammo cho'l shamolidek, telba shamol bo'lmaydi.

Ushbu misolda inson tabiatdagi hodisalarga kuchsiz ekanligini ifdalab kelmoqda. Ya'ni shamolning telbaligi orqali, hozirgina ochilib turgan havo bir ozdan so'ng yomg'ir yog'ib hamma yerni namlik va sovuq havo qoplashini ishora qilib kelmoqda. Inson qanchalik harakat qilmasin tabiat va yaratga oldida kuchsizdir.

- Kampir kanfet tashladi. Qorako'z ilib oldi-yu hovlini shamoldek aylanib chiqdi. Kampir kechgacha qizi bilan ezilib gaplashib chiqdi.

Ushbu misolni izohlaydigan bo'lsak, shamoldek leksemasi bu yerda itning quvonchi va xursandchiligiga ishora qilib kelmoqda. Shamol leksemasi orqali metafora hosil qilingan va itning his-tuyg'ulari, egasiga bo'lgan mehri va muhabbati ifodalangan, bir dona shirinlik olgani uchun hovlini aylanib yugurib ichiga sig'may xursand bo'lishi va baxt timsoli bo'lib kelmoqda.

- Qorako'z gulxan atrofida aylanar, goh alanga taftiga chidolmay nari ketardi. Bir bo'xcha kiyim zum o'tmay yonib kulga aylandi. Shamol kuyindilarni hovlining to'rt tarafga erkalab sochib tashlardi.

Ushbu misolni iohlaydigan bo'lsak bu yerda, shamol kuyindilarni erkalab sochib tashladi, deganda, insonni o'ylashga majbur etadigan hodisa bo'lib, tashvishlanish, hotirjamlikni yo'qotish va kelajakni o'ylab ezilish ma'nolarida qo'llanilgan. Bu yerda to'rt tarafga tashlash iborasi orqali yuqorida keltirilgan o'ylar orqali o'z o'zini qiynash, siqilish va iztirobga tushish, ich etini yeyish ma'nosidir.

- Ravshanbek darchaning orqasida turib edi. Bu so'zlarni eshitib, bir umrda sovuq shamol yemagan bola emasmi, sovuq so'z tugul, bolaning o'mgonidan bir jazoyil teshib o'tgandan yomon bo'ldi.

Sovuq shamol yemagan bola, shashti qaytmagan, og'ir gap eshitmagan, ko'krigidan bir dona ham nayza yemagan ya'ni pahlavon yigit ma'nosini yoritib kelmoqda. Dostonlarda pahlavonlarning kuch qudratini, ularing tabiatini ifodalashda ko'proq metaforalardan foydalanib uni bo'rtirib ko'rsatishadi, bu yerda ham shunday



hodisani ko'rishimiz mumkin, ota-onasini yolg'iz farzandi yomon so'z eshitmay, erkalab voyaga yetqazgan farzandlarining harakterini ifodalashda sovuq shamol metaforik iborasidan foydalanilgan.

- Orzular shamolga uchdi. Homilalikdan to shu kungacha qilingan umidlari tamom bo'ldi.

Orzulari shamolga uchdi iborasiga, murojaat qiladigan bo'lsak, onaning farzandi dog'ida sarob bo'layotgan hayollari, farzandining sog'inchi unga atab qo'ygan barcha orzu-niyatlari bir pul bo'lganligi, u farzandini boshqa ko'ra olmasligi, uning iforini ortiq his qila omasligi, onaning dard-u hasratlarini, ifodalab yolg'izlik timsoli bo'lib kelmoqda.

Zero xalq orasida ham shu narsa mashhurki, kimki biorvni yaxshi ko'rsa, uning murodini izlaydi. Agar muhib o'zidan suyagining murodini izlasa, o'sha suyganini suyish rostdir. Ya'ni sevganini baxtli qilish uchun o'zini u xohlagandek inson bo'lishga undashdir. Ammo agar muhib suyganidan o'z murodini izlasa, demak uni suymaydi, balki o'zini suyadi. Bunday kishi muhabbatga davogar hisoblanadi, ammo muhib emas. Barcha da'vogarlar ojizdirlar, chunki kuchlilarning da'vogarlik qilishga ehtiyojlari yo'qdir. Muhabbat kamchiliklarga qaramay uni sevishdir unga talpinishdir aslida. Shu bilan birga muhabbat har qanday qiyin kunda ham insonni yuksalishga undaydi, qora shamolli kunlar bo'lsada muhabbati qalbiga huzur bag'ishlaydi.

### **Xulosa.**

Har bir millatning madaniyatida shamol o'ziga xos bo'lishi bilan birga, ular orasida o'xshash jihatlari ham ko'zga ko'rinadi. Bu esa insoniyatning umumiy qadriyatlar, o'xshash badiiy taffakurga ega ekanligi, farqliklarning esa har bir xalqning o'ziga xosligi, urf-odatlar, madaniyatlar o'ziga xoslini namoyon qildi.

Shunindek, metafora mavzusi turli tilshunosliklarda turlicha tadqiq yo'nalishlarda xususan, lingvomadaniy, kognitiv tilshunoslik, psixolingvistika kabi yo'nalishlarida tadqiq qilinib kelmoqda.

Shuningek, shamolni ifodalovchi so'zlar ayniqsa, o'zbek tilida badiiy adabiyootda, ativ qo'llanuvchi, o'zining semantik va leksik xususiyatlari bilan alohida o'rinni egallovchi so'z hisoblanar ekan. Badiiy tasvirni bo'yoqdor va o'ynoqi qilishda, metafora, metonimiyalarni vujudga keltirishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu bilan birga shamol tushunchasi insonning ruhiy dunyosida ma'lum va o'ziga xos o'zgarishlarni keltirib chiqaradi, ularning talqini har bir xalqning ramzlari va tassurotlarini keltirib chiqaradi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Tomoyuki O. A network of construction of Japanese based on Existential Construction. – J.: Hitsujisho, 2002. – B. 137.
2. Hiroaki S. Mujotoha nanika. – J.: Overlook, 1995. – B.193.
3. Takeda T. Tsureduregusa. – J.: Kakugawashoten, 2002. – B. 203.





4. Higashi M. Bukkyoto metafa-. – J.: Tokyo Gaikoku daigaku, 2011. – B. 9.
5. Aoki K. Ninchiimironno tetsugaku. – J.: Ooshukanshoten, 2002. – B. 38-57.
6. Mori Y. Bukkyo, sakuhin, metafa-. – O.: Osakadaigaku, 2009. – B. 67.
7. Takeda T. Tsureduregusa. – J.: Kakugawashoten, 2002. – B. 253.
8. Kamida U. Kenko to mujo. – K.: Kansaidaigaku, 1996. – B. 273.
9. Kosimov, A. (2021). THE IMPACT OF SELF-EFFICACY IN ENHANCING ENGLISH PROFICIENCY AMONG UZBEK HIGH SCHOOL STUDENTS. *British View*, 6(1).
10. Umaraliev, M. M. (2014). THE IMPORTANCE OF COMMUNICATIVE LANGUAGE TEACHING AND LEARNING. In ПРОФЕССИОНАЛЬНОЕ ЛИНГВООБРАЗОВАНИЕ (pp. 433-436).
11. Umaraliev, M. (2021). SOME CHALLENGES IN ENCOURAGING INDEPENDENT LEARNING. *Academic research in educational sciences*, 2(4), 1878-1882.
12. Sultanovna U. S. ARTISTIC PSYCHOLOGISM IN THE WORK OF S. RICHARDSON "PAMELA OR THE REWARDED VIRTUE". – 2020.
13. Ugli, Qurbonov Nasibullo Khabibullo, Durdon Uktamova Bakhtiyor Qizi, and Kholmatov Shakhriyor Zokhidjon Ugli. "TEACHING VOCABULARY TO HIGHLEVEL STUDENTS." *Archive of Conferences*. Vol. 3. No. 3. 2020.
14. Мамаева М. Э., Шокирова М. Ш. Роль лингвистического образования в развитии культуры личности студента //Потенциал современной науки. – 2016. – №. 1. – С. 140-143.
15. Мамаева, М. Э., & Шокирова, М. Ш. (2020). EDUCATIONAL POTENTIAL OF FOREIGN LANGUAGES. In Проблемы развития современного общества (pp. 400-403).
16. Холматов Ш., Йўлдошева М. ИНГЛИЗ ВА ЎЗБЕК ТИЛЛАРИДА СЎЗ УРҒУСИ ДАРАЖАЛАРИНИНГ АҲАМИЯТИ ВА ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ //Academic research in educational sciences. – 2021. – Т. 2. – №. 3.
17. Игамбердиева, Ш. (2021). Развитие навыков творческого сотрудничества будущих преподавателей иностранного языка при использовании технологии «бит-урок». *Общество и инновации*, 5(11/S), 190-198.
18. Kosimov, A. (2022). THE IMPORTANCE OF CHOOSING APPROPRIATE ASSESSMENT TOOLS IN LANGUAGE TEACHING AND ITS IMPACT TO SECOND LANGUAGE ACQUISITION. *British View*, 7(1).
19. Usmonova, D. S. (2020). COMPARATIVE TYPOLOGICAL ANALYSIS OF SEMANTIC-STRUCTURAL FEATURES OF CONDITIONAL INCLINATION IN DIFFERENT SYSTEMATIC LANGUAGES. *Проблемы современной науки и образования*, (4-2), 21-23.
20. <https://www.jstor.org>stable> (Yapon mumtoz adabiyoti tadqiqotlari).
21. <https://www.enotes.com>kamo-no-chomei> (Mumtoz adabiyotlar fondi)